

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI FAKUL'TETI  
UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI

# **REFERAT**

**MAVZU:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarni o'rni

**Bajaruvchi : 4-kurs talabasi Mingboyev F**

**JIZZAX -2014 y**

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI  
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA  
TARBIYAVIY TADBIRLARNI O'RNI**


**Reja:**

**Kirish**

1. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish samaradorligi
2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar.
3. Sinfdan tashkari ishning vazifasi va maksadi.
4. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
5. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri.

**Xulosa.**

**Foydalanilgan Adabiyotlar**



## Kirish

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllarini mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishini talab etmoqda.

Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ta'sislanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tpzimida kuyidagilar bo'lishi lozim:

- Ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

- Milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish.

- Pedagoglar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlardagi o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytradi, o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari tashkil etiladigan tadbirdarda fan o'qituvchilari o'z faniga qiziqqan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazib, o'quvchilarning qiziq ishlarini o'stiradi. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) sport to'garaklari;
- g) badiiy havaskorlik to'garagi;

O'rta umum ta'lif maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyuştiradi. Sinf rahbari sinfdan tashqari ishlarni uyuştirishda to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Ularni qaysi to'garakda mashg'ul bo'lishlari hisboga olinadi.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarni ijodkorlikka da'vat etuvchi

tarbiyaviy maskandir. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi sharoitda maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi bolalar uylari, yoshlar saroylari, yosh texniklar saroylari, yosh texniklar uylari maktab tarbiyasining uzkiy davomchisi bo'lib qolishi kerak. O'zbekiston Respublikasining «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiysi», bu ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda asos bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, nafosat va jismoniy jihatdan to'liq, shakllangan kishilar qilib tarbiyalash dars jarayonidan boshlanadi. Biroq o'quvchilarning kundalnk o'tib borayotgan ehtiyojlari, talablari va barcha qiziqishlari faqat dars jarayoni bilangina cheklab bo'lmaydi.

Bunday ko'p qirrali qiziqishlarni sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni uzviy bog'lanish asosidagina qondirish mumkin. Shu sababli keyingi davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini qo'ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, ota-onalar, sinf faollari, uslubiy yordam ko'rsatish;
- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini kurish mumkin: 1-tashkilotchilik, 2- usuliy, 3-ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin: . . .

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishi qiyin.

### **Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish samaradorligi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish ularning mamlakat ijtimoiy muammolarini to'g'ri baholay olishlari bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishlari, erkin va mustaqil ijodiy fikr yuritishlariga yo'lladi. Tadqiqotlarimiz mobaynida o'quvchilarda ijodkorlik faoliyatining yuqori darajasi uni muntazam ravishda mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali rivojlantirildi. Bu o'quvchi tomonidan maxsus turdag'i o'quv topshiriqlari- mustaqil ishlarni bajarish, shu jumladan komp'yuterli ishbop o'yinlari, darsliklar va boshqa adabiyotlar natijasida amalga oshdi.

Mazkur tadqiqot ishining 1-2- boblarida boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishning nazariy- uslubiy jihatlari, hamda bu borada tarixiy tajribalar, pedagog- psixologlarning ilmiy qarashlarini yoritishga harakat

qildik. Shu bilan birgalikda tadqiq qilinayotgan masala doirasida innovatsion usullar tavsifi, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari, hozirgi paytda foydalanilayotgan dastur va darsliklarning tahliliy natijalari, hamda uning amaliyotdagi maktablar ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalarning o'rganilishi masalalari ko'rib chiqildi. Bu esa maktab o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda maxsus pedagogik tzim yaratilishini ilmiy metodik jihatdan asoslashga imkoniyat berdi.

Ushbu bobda biz kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodlaridan foydalanish tizimini bayon qilamiz. Mazkur bobda dastlab eksperimental o'qitish mazmuninig tashkiliy masalalari o'z aksini topgan Tajriba-sinov natijalari uning ko'p qirraliligi, o'quvchilar sonini yetarli darajadagi o'lchami va o'rgatuvchi-nazoratli topshiriqlar majmuining xilmalligi bilan belgilanadi.

Eksperimentlarning mazmuni, shakl va yo'llarini optimal holda loyihalash uchun yoxud belgilangan vazifalar ichida ta'limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun biz o'quv elementlari mohiyatini o'quvchilarga uzatish yo'llarini aniqlashga kirishdik. Buning uchun tajribada qatnashayotgan o'quvchilarning ijodiy faoliyatining rivojlanganlik darajasini, bilim olishga intilishi doirasida aniqlashga harakat qildik.

Shu bilan birgalikda boshlang'ich maktab o'quvchilari aniq fan sohalariga oid kitoblarni, davriy nashrlarni kam o'qishi, ataylab Internet orqali bilimdonlikni oshiruvchi ma'lumotlarni ko'p ham izlamasliklari aniqlandi. Tajriba – sinov ishlari 2006- 2007, 2007-2008 va 2008-2009 o'quv yillarida Navoiy viloyatining umumta'lim mакtablarida davlat ta'lim standartlari, me'yoriy hujjatlari talablarini hisobga olgan holda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish maqsadida o'tkazildi.

Ma'lumki, har qanday fan o'ziga tegishli voqeа va hodisalarni bosqichma-bosqich o'rgangan holda rivojlanib boradi.

Maktab o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish yo'llari, vositalarini

aniqlash, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish bozor iqtisodiyoti sharoitida avloddan ijodkorlik qobiliyatini kamol toptirish bilan aloqada amalga oshiriladi. Maktab ta'limali bunday rivojlanishi o'quvchilarga beriladigan qadriyatlar, bilim, faoliyat usullari yoki ichki manbalar ular tomonidan erishilgan samaradorlik darajasiga ega bo'ladi. Birinchi holatda ta'lim insoniyat tajribasini o'zi tiklashini, madaniy-tarixiy an'analardan foydalanish va asrashni ta'minlaydi. Ikkinci holatda esa o'quvchining uning mahsuldor ijodiy faoliyatini orqali shaxsiy imkoniyatlarini rivojlashtirishga turki bo'ladi. Shuningdek, ta'lim standartlari ikki komponentga bo'linadi; tashqi va ichki, lekin ular o'rtasi o'zaro aloqa mavjud bo'ladi.

Maktablar hayotida turli holatlarning bo'lishi tabiiy hol. E'tiborga molik holatlardan biri fan olimpiadalarida g'oliblarning ko'pchiligi an'anaviy ta'limga bo'ysinmaydigan o'quvchilar hisoblanadi. Ana shu munosabat bilan aytish mumkinki, ijodkorlik- bu hamisha doiradan, chegarada chiqish, bu mavjud bilim, tushinchalar, me'yordarning o'zgarishi ta'limda yangi mazmunning yaratilishidir.

Ijodkorlik natijalarini baholashning o'z me'yori, qoidasi va me'zonlari mavjud. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda tuzilish asosi (maqsad, tamoyil, mazmun va hokazolar)da o'quvchiga "bilim berish" dagi har qanday ta'lim turi tizimi bilan o'xshashdir. Biroq o'quvchilarning ijodkorlik xususiyatiga ega bo'lgan qismi ta'lim standartida belgilangan bilmlar hajmidan o'zib ketishi mumkin. Buning sabablari quyidagilardan iboratdir; a) ijodiy yondashuv qobiliyatli bolalarga standartda beriladigan va tekshiradigan bilimga nisbatan ko'proq natjalarga erishish imkonini beradi; b) o'quvchilarning shaxsiy maqsad-mo'ljali hamda individual ta'lim dasturi eng iste'dodli bolalarni qo'shimcha mashg'ulotlar, jumladan tanlagan mashg'ulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi; v) o'qituvchilar tomonidan o'quv fani bo'yicha dasturi tuzish o'z dasturiga standartlardan o'zib ketish uchun savollar va mavzular kiritish imkonini beradi; 1) o'zib ketish samarasi maktab ichi, maktablararo olimpiadalar konferensiyalar, loyiha va boshqalarni ta'minlaydi; 2) standartlarda belgilangan

bilim darajasidan o'zib ketish o'quvchilar tanlov bo'yicha fanlar, fakultativlar, ustaxona, laboratoriya, individual mashg'ulotlarning samaradorligiga yordam beradi.

O'quvchilarda ijodkor faoliyatini rivojlantirish hamda ular tomonidan an'anaviy ta'lim me'yorlarini o'zlashtirishiga yordam beradigan qoidalar quyidagilardir.

O'quv jarayonining tuzilishi qanday natijalar va qanday shaklda nazorat qilinishiga bog'liq. Ma'lumki ijodiy faoliyatning natijalari ikki tomonlama xarakterga ega tashqi va ichki shuning uchun ham o'qituvchilarning ta'limda erishgan yutuqlari hamda ularning ichik sifati nazorat predmeti hisoblanadi. Ta'lim shaxsning asosiy xususiyati sifati birinchi navbatda uning ichik rivojlanish natijasi bilan aniqlanadi.

Ko'pincha ijodiy faoliyat diagnostikasi uchun turli xil testlar qo'llaniladi. Biroq, vaziyatli yondashuv ya'ni o'quvchilarni maxsus tashkil etilgan yoki tabiiy ta'lim vaziyatlaridan foydalanish yordamida diagnostika qilish samaraliroqdir. Bunday hollarda tashxis qiluvchilar rolini taklif etilgan mutaxassis ekspertlar qanchalik bajarsa, amaliyotchi pedagoglar ham shunchalik bajaradilar, chunki ular sub'yektiv tajribalariga tayanadilar. Ta'lim natijalarining diagnostikasi, jumladan, o'quvchi qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash o'qituvchining o'quvchida hosil bo'layotgan sub'yektiv "his etishi" yo'li bilan aniqlandi.

O'quvchilarning ta'lim mahsulorligini tahlil qilish va baholash usullari ularning ijodkorlik faoliyatini nazorat qilish metodi bo'ladi. Mazkur mahsulotning turi va xarakteri, shuningdek pedagogning maqsadli ta'limiy ko'rsatmalari bunday tahlil elementlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish zarurati ular ishining tahlil etishning quyidagi yo'nalishlarini yaratishga olib keladi: Ijod sohasi, ijod darajasi, mustaqillik darajasi, boshqa o'quvchilarning ishlaridan farqlanish darajasi o'zining oldingi ishlaridan farqlanish darajasi .

O'quvchi ta'lim mahsulorligining har bir elementini son yoki sifat, jihatdan ball bilan yoki og'zaki baholashi mumkin. Ta'limiy taqriz, tavsif og'zaki shaklga

qarab chiqiladi. Uch-besh, o'n balli shkalalar o'quvchilar ijodiy natijalarini son jihatdan baholash imkonini beradi. O'quvchilar bilimi sifati quyidagi usullar bilan baholanadi; a) javobdagi ijod elementlarining soni bo'yicha; b) javob elementlarining farqi bo'yicha ; v) javobning o'quvchining o'zi yoki sinfdoshining ishiga nisbatan yangiligi bo'yicha; g) yaratilgan obraz, ramz yoki ifodaning lo'nda va ixchamligi bo'yicha; javob uchun foydalanilgan imkoniyatlarning ko'pqirraligi bo'yicha; ye) olingan natijalarning amaliy ahamiyati foydalanishi bo'yicha;

O'quvchilardagi shaxslik sifatlarining rivojlanish darajasi ular diagnostikasining dastlabki va oxiridagi natijalarini taqqoslash asosida aniqlandi. Kuzatish, testlar, o'quvchilar bilimi mahsuldorligini tahlil etish metodikasi yordamida har bir o'qituvchi uch turkumda ijodkorlik sifat, bilishga doir va faoliyatni tashkil etish kabi guruhlashtirilgan sifatlarining rivojlanish darajasini belgilaydi. Har bir o'quvchining shaxslik sifatlarini rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi : a) o'quvchiga yozma ta'limiy tavsifnama; b) uning ta'limiy erishgan natijalari; v) ijodkorlikda kuzatiladigan pedagogik konsiliumlar, testlar va boshqa materiallar natijalari ; g) fikrlarni ifodalovchi anketa va o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi.

O'quvchining sifat rivojlanishining yakuniy bahosi uch daraja bo'yicha belgilanadi: O'quv yili davomida o'quvchining shaxslik sifatlari ijobiy o'zgargan taqdirda “yuqori” deb baholandi, bu uning eng ko'p imkoniyatga egaligi namoyon bo'ldi; agar o'quvchining imkoniyati qayta bo'lganu, ammo o'zgarish yuz berganda “o'rta”, o'zgarish sezilmagan taqdirda “past” deb baholandi. Olingan natijalarni tabaqlashtirish maqsadida besh darajali shkaladan foydalani samaralidir, unga “o'rtadan yuqori”, “o'rtadan past” kabi darajalar ham qo'shiladi. Har xil o'qituvchilar tomonidan aynan bir xil o'quvchilarga oid olingan ma'lumotlar o'rganilganda bu ma'lumotlar ta'lim jarayonining ham yaxlit, ham har bir o'quvchi bo'yicha samaradorligi to'g'risida mulohaza yuritish imkonini berdi( -jadval).

## **Sinfdan tashkari ishning vazifasi va maksadi.**

“Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko’zlab yashagan. Millat, Vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning to’ridan joy olib, har birimizning hayotimizda, ongimizda charx urib turishi darkor.

Chinakam xalq bo’lsak, chinakam millat bo’lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o’zgalar havas qiladigan ozod va obod Vatan qoldiraylik”.

Prezident I.A.Karimov.

/ 1997 y 29 avgust. O’zbekiston Respublikasi

Oliy majlisi To’qqizinchisess.so’z.n./

Mazkur nutqdan kelib chiqib, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishda qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beradigan o’quvchi yoshlarni tarbiyalash ishida maktabdan tashqari olib boriladigan mashg’ulotlar katta rol o’ynaydi. Shu sababli ham o’qilayotgan asar yuzasidan umumiy fikrga kelish, maslahatlashish, aniq tushuncha hosil qilishning eng yaxshi vositasi-to’garakdir. To’garak o’quvchilarni uyuştirishda, asar ustida ishlashga o’rgatadi.O’qituvchi bu ishda rahbar bo’ladi.

Adabiyot va adabiy o’qish mashg’ulotlariga aloqador bo’lgan to’garaklar asosan 3 turlidir.

1. Adabiy – ijodiy to’garak.
2. Drama to’garagi.
3. Ifodali o’qish va badiiy ijod to’garagi.

Ma’lumki bu uch to’garak ham o’quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, adabiyotdan yanada ko’proq ma’lumot olishni, o’z ustida ishlashni talab qiladi, ijodga ilhomlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur to’garaklarning maqsad va vazifalari bir nuqtada birlashadi.

To’garakda o’quvchilar o’zlarini qiziqtirgan yangiliklar bilan tanishadilar. Ularni qiziqarli, jonli bo’lishiga harakat qilish kerak. To’garak a’zolarining saviya

va yoshlarini, albatta, e'tiborga olib reja tuziladi va har bir to'garak rahbari shu to'garakning xususiyatini aniqlagan holda ish yuritadi.

Drama to'garagiga rahbarlik qiladigan o'qituvchi dramatik asarlarning xususiyatlarini egallagan va ma'lum darajada aktyorlik san'atidan ham xabardor bo'lishi, o'quvchilar oldida biror-bir personajning harakat va nutqini, odat va xarakterini ko'rsatib bera oladigan bo'lishi lozim.

Adabiy-ijodiy to'garak rahbari esa adabiyot asarlarini tahlil etish, nazariy bilim berish bilan birga ijod ishidan ham xabardor bo'lsa va o'z ijodini o'quvchilarga manzur qila oladigan bo'lsa, nuqson siz ifodali o'qish mahoratiga ega bo'lsa, mazkur to'garaklar obro'si yanada oshadi.

To'garak mashg'ulotlari bir oyda, bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Mashg'ulotlar oddiy sinfda emas, balki mакtab adabiyot kabineti maktab sahnasida o'tkazilgan ma'qul. Mashg'ulot o'tkaziladigan joyning tashqi ko'rinishi ham o'quvchilar ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi / portretlar, asarlari bilan bezab./

Mashg'ulotlar mavzusini xilma-xilligi ishning mazmuniga o'quvchilarning qiziqishlariga ta'sir etadi.

Bir yillik mashg'ulot uchun tuzgan reja o'z navbatida dastur materiallari asosida adabiyot va adabiy o'qish yuzasidan o'quvchilarga beriladigan ma'lumotni boyitish va kengaytirishda, ayniqsa drama va adabiy-ijodiy to'garaklar ahamiyatlidir.

Sinfdan tashkari mashgulotlarni vazifasi va tashkil etishini uziga xos xususiyatlari.

Sinfdan tashkari ishlarni. Ukvchilarga ta'lim tarbiya berishning asosini ukituvchi raxbarligida olib boriladigan ishlar tashkil etadi. Lekin sinfdan tashkari ishlar xam uning organik kismlaridan biri bulib, ta'lim tarbiyada muxim rol uynaydi. Ular ukuv mashgulotni oddiy davomi bulmasdan, balki dars bilan organik boglash lozim. Sinfdan tashkari ishlar ukuvchilarni ixtiyori asosida, ularni kizikishini e'tiborga olgan xolda tuziladi.

Sinfdan tashkari mashgulotlarda ukuvchilar texnik konstruktorlik kobiliyatlarini ustirish, fikrlashga urgatadigan, fan va texnikaga oid turli ishlarni bajarishi mumkin.

Sinfdan tashkari ishlarni tashkil etish prinsiplari : Bu ishlar ta'lim tarbiyaning umumiy prinsiplari asosida tashkil etiladi, lekin uziga xos spetsifikatsiyasi xam mavjud.

- a) sinfdan tashkari ishlar insonparvarlik goyalari yunalishida ;
- b) ukuvchilarni kizikishiga karab ixtiyoriy asosida sinfdan tashkari mashgulotlarni formasi va mazmuni tanlanadi;
- v) ukuvchilarni ommaviy jalg etish ;
- g) tugaraklarni tuzishda va ommaviy tadbirlarni utkazishda ukuvchi yoshlar tashkilotlariga va ukuvchilarni mustakil initsiativasiga tayanish ;
- d) sinfdan tashkari ishlarga umumiy va ijodiy xarakterga ega bulish ;
- ye) sinfdan tashkari xamma ishlar maktabdagagi ukuv-tarbiyaviy ishlarga buysinishi lozim.

### **Sinfdan tashkari ishlarni tashkiliy formalari.**

Sinfdan tashkari ishlarni tashkiliy formalari. Sinfdan tashkari ishlarni 3 guruxga bulish mumkin:

- a) ukuvchilarni individual ishlari ;
- b) ukuvchilar kizikkan mavzu va texnika turini uzida mujassamlashtirgan tugaraklar ;
- v) kungilli ukuvchilarni birlashtiruvchi ommaviy tadbirlar ;

Individual ishlar tugaraklar etish uchun asos bulib. Ayrim ukuvchilar ukituvchi va boshka mutaxassis raxbarligida konstruksiyalash va modellashtirish bilan shugullanib, ratsionalizatorlik taklifi kiladi, kurgazma kurol tayyorlaydi. Keyinchalik bu kizikishga boshka ukuvchilar xam kizikadi.

Maktabda sinfdan tashkari ishlarni rejallashtirish. Sinfdan tashkari ishlarni tashkil etish shartlaridan biri ularni tugri rejallashtirishdir. Xamma sinfdan tashkari olib boriladigan ishlar yil boshida rejallashtirilishi lozim.

Unda kuyidagi masalalar yoritilgan buladi :

- a) tugaraklar nomlari, raxbarlarni ism familiyasini kursatish ;
- b) tugaraklarni material, jixoz va kurollar bilan ta'minlash ;
- v) ish joyini kursatgan xolda ish jadvali ;
- g) ommaviy ishlarda katnashadiganlar va uni tayyorlashga javobgar kishilar ;

### **Mexnat va texnik ijodkorlikdan tugarak mashgulotlari.**

Tugaraklar turlari. Sinfdan tashkari olib boriladigan ishlarni doimiy ishslash formasi bu mexnat va texnik ijodkorlikdan olib boriladigan tugaraklardir. Tugarakda doimo ma'lum vakt ichida bir ish turi bilan tunganlanadi. Bu mashgulotlarni vazifasi ukuvchilarni texnika va mexnatga kiziktirish, texnik ijodkorligini ustirish va ratsionalizatorlik faoliyatlarida kunikma va malaka xosil kilishidir.

### **Oila – tarbiya o'chog'i.**

Oila – jamiyat negizi har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq, topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga shu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda qabul qilingan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi va ushbu dasturda belgilangan tadbirlarning strategik yo'naliishlariga e'tibor berilsa, ular mamlakatimizdagi oilalarning mustahkam bo'lishiga imkon beruvchi vazifalarni nazarda tutadi.

1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu yilning o'zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor tashkil etilgan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatga hamohang bo'lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini: ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq, muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Markazning muhim maqsad va vazifalaridan biri oila-konsepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishning uslub va vositalarini joriy etish orqali hukumatimizning ijtimoiy sohadagi insonparvar siyosatini amalda har bir fuqaro ongiga oila instituti orqali singdirishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov har chiqishlarida oid masalalariga katta e'tibor berar ekanlar, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi qadrli ekanligiga oid fikrlari alohida ahamiyatga ega. «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog' ekanligini tan olishimiz darkor». Mustaqillik yillarida respublika hukumati va Prezidenti I.A. Karimov tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan etibor, yillarga maqom berilayotganda oilani mustahkamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora-tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g'amxo'r ekanligidan dalolatdir.

Taqdim etilayotgan konsepsiya Sila institutini yurtimizda yanada mustahkamlash, u orqali milliy istiqlol g'oyasini fuqarolar ongiga singdirish ishlari uchun dasturulamol bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangilanish

jarayonlari va islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish, shu tarzda xalq farovonligini ta'minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash, oilaning barqarorligiga erishish ekan, Sila bag'ishlangan konsepsiyaning vujudga kelishi o'ta dolzarbdir. Zero, Respublikamiz o'z iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatni erkinlashtirish va demokratiyalash siyosatini izchil olib borar ekan, bizga jamiyatning negizi bo'lgan oilalar muammolari va istiqboliga qaratilgan konsepsiya zarur. Darhaqiqat, konsepsiya O'zbekistondagi oilalarning rivojlanishi istiqbolini tasavvur qilish, oila borasidagi ijobiylari va muammoli masalalarni oldindan bashorat qilish uchun, mavjud muammolarning sabab va omillarini belgilab olish uchun ham xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki «Oila» konsepsiyasini yaratish va bu bilan bog'liq ishlarning dolzarbligi hamda bajarilishining maqsadga muvofiqligi mustaqillik yillarida Respublika rahbari I.A.Karimov tashabbusi bilan yillarga berilgan maqomlar doirasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining oilani, ona va bolani ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilganligi, hukumat tomonidan oila manfaatlariga ajratilayotgan sarmoyalarning amalda oqlanishi zarurati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 fevralb 6-sonli «Ona va bola» Davlat dasturi to'g'risidagi qarorida belgilangan vazifalarning muhimligi va dolzarbligidan ham kelib chiqadi.

Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar,

avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir. Oilaviy tarbiya – oklada ota-onalar, vasiylar yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'r'in tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch-oilaviy tartibdir.

Oila va mahalla boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, qo'ni-qo'shniligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'ligi va hokazolar bilan ta'minlanadi.

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatları eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, bolani oila va mahalladan boshqa qayerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiyaning qimmatlilagini ahamiyati ana shundaki, kichik bolalik paytida oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Huddi shuning uchun ota-onalarning bolalarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Oila va mahalla hamkorlikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilani qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'lqinsimon o'zgaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasinining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarni

ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalgam shiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar, turli vaziyatlarga duch keladilar.

Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'y sunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonda ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay ishslashni taqozo etadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarniko'ngildagiday olib borishda o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila va mahalla hamkorlikda ish olib borishi lozim deb o'ylayman. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, tahlil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo'lishlari lozim.

### Shaxsning oila muhiti, jamiyatda shakllanishi

Mavzuning maqsadi va vazifasi shaxsning shakllanishida oila muhiti, kollektiv va jamiyatning ta'sirini ifodalash, kollektiv, kollektivizm, shaxsning jamiyatga aloqadorligi tushunchalarini shakllantirishdir.

O'qituvchi uyga berilgan ikki topshiriq haqida gaplashib bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki o'quvchidan so'raydi. O'quvchilar avvalo ottonalaridan yoki opa-akasidan, keyin esa tarbiyachilarini, o'qituvchilari, mahalla-

kuydan minnatdor ekanligini aytadilar, o'qituvchi xulosa qiladi:

- Javobingizdan ma'lum bo'ldiki, shaxsning kamol topishi avvalo oila muhitiga bog'liqdir. O'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning quyidagi she'riy parchasiga e'tibor bering.

Tifl, ya'ni bolani kichikligida parvarishlash, ya'ni tarbiyalash kerak, sadaf qatoriga kirgan qatra, ya'ni dur odamlarning boshida turish sharafiga muyassar bo'ldi. Huddi shuningdek, ota-onan go'yo sadaf, bolalar esa ularning bag'ridagi qatralar - durlardir.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta'minoti, o'zaro munosabatlari: erxotin, bobo-buvi, qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog'a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a'zolarining birgalikda ishlashi, dam olishi, adabiyot, san'at, ilm-fan va sport bilan shug'ullanishi, daromad, ruhiy-ma'naviy holatlar, qo'ni-qo'shnichilik aloqalari, mahalladagi to'y-ma'rakalarga qatnashish va hokazolar oila muhitini tashkil etadi.

Oila muhiti axloq-odob, madaniyat qoidalari asosida tashkil topsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi bolalar to'g'ri kamol topadi. Misol tariqasida Ul'yanovlar oilasidagi muhitni, unda aka-ukalarning bir-biriga o'qish-yozishni o'rgatgani, aqlni rivojlantiruvchi shaxmat va boshqa o'yinlarni doimiy o'ynagani, ota-onan esa bolalarining mashg'ulotlariga rahbarlik qilishgani, ularga yaxshi sharoit yaratib berishgani, Volodya akasi Aleksandr va opasi bilan kitoblar, ijtimoiy hayot xususida qizg'in bahslar qilganini gapirish, shuningdek, mahalladagi, qishloqdagi ibratli oilalardan misollar keltirish maqsadga muvofiqdir.

Oila muhitining ahamiyati shundaki, boladagi tabiiy iste'dodning qirralari dastlab shu yerda ko'zga tashlanadi. «Insonlarda bo'lgan tabiiy iste'dod yog'ochdagi yonish xususiyatiga o'xshaydi: yog'ochga o't qo'yilmasa, yonmaydi» («Kalila va Dimna»dan). Binobarin, bola iste'dodining yonishi oiladan boshlansa, shuncha yaxshi. Ota-onan o'z bolasini kuzatib borib (go'dakligidanoq) boshqa bolalardan farqini, nimaga qobilu, nimaga qobilmasligini aniqlasa, uni qobiliyati kuchli bo'lgan tomonga turtki bersa,

rivojlantirsa, shaxsning iste'dodi shuncha yorqin va tez ko'zga tashlanadi. Murg'ak ongli go'dakning himoyaga, yordamga, rivojlantirishga muhtoj qiziqishi, intilishini birinchi bo'lib ota-onasini sezmasa, kim sezadi?! Ko'zlarini mo'ltilatib turgan go'dak, faqat sizga non uchun jovidirab qarayotgani yo'q-ku! Uni tushuning, his qiling, unga yo'l oching! Qobiliyati, iste'dodi bolaligidanoq ota-onasi yohud boshqa bir murabbiy yordamida rivoj topgan kishilardan buyuk daholar yetishib chiqqan. Bolaning yuragini tushunmay, hadeb arzir-arzimas ro'zg'or, tirikchilik ishlariga qayrab solaverish ham to'g'ri emas. Bola musiqa, rasm, adabiyot, fanga yoki boshqa hunarga qiziqayaptimi? Ota-onasini haqda o'ylab ko'rishi, go'dakka madad berishi kerak. To'g'ri, bu oson emas, juda tadbirkor, zahmatkash bo'lishni talab etadi.

Oila muhitidagi ota-onasini va bolalarining munosabatiga to'xtalib, quyidagi rivoyatni keltirish mumkin.

Ibn Sino kollektivdan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan bolaning baxtsiz bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir. «Forobiy fikricha, insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o'z qo'lidadir. «... tabiiy boshlang'ichlar ta'siri ostida kamol topib insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-hunarga muhtojdir».□ O'z-o'zidan ma'lumki, bu ehtiyojlar jamiyatda qondiriladi. Marksizm-leninizm asoschilarini bu masalani atroficha hal qilib berishgan. Kollektiv jamiyatning kichik bir bo'lagi, u shuning uchun ham o'zida jamiyatning siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa g'oyalarini mujassamlashtiradi (I.V.Dubrovina).

Kollektiv haqidagi pedagogik qarashlar A.S.Makarenko, N.K.Krupskaya va boshqa sovet pedagoglarining ishlarida o'z aksini topgan. Kollektiv bir maqsad, bir intilish yo'lida birlashgan, shu maqsad yo'lida iqtisodiy tafakkur, ijodiy kuch-quvvatlarini, faoliyatlarini bag'ishlaydigan kishilar guruhidir. Kollektivism tuyg'usi ham ana shu uyushgan shaxslarning ma'naviy-ixtiyoriy birligidan kelib chiqadi va shaxs, guruh, jamiyatning maqsad yo'lida birlashuvi bilan belgilanadi.

Kollektivizm jismoniy, aqliy mehnat faoliyatida, ma'naviy-axloqiy sifatlarning ma'lum ma'noda umumiy bo'lishida yaqqol ko'rindi. Shunga ko'ra shaxs kollektivda, jamiyatda mehnat qiladi, jamiyatning kichik bir tabiiy hujayrasi bo'lgan oilada yashaydi. Jamiyatning qanchalik rivojlanganini oila farovonligida, shaxsning kamolotida qurish mumkin. Yoki shaxsning barkamolligi, oilaning to'la-to'kisligiga qarab, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy ahvolini bilish mumkin. Chunki, shaxs-oila-jamiyat munosabatlari o'zaro mustahkam bog'langan. Shuning uchun shaxs oila - jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi.

### **Xulosa**

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar buyicha direktor urinbosari uz ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini nazorat kiladi. Sinfdan va maktabdan tashkari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda maktabning umumiy rejasi, ukituvchilar, sinf rahbarlari, bolalar yetakchisi, ota-onalar kumitasi ish rejalarini e'tiborga olishi kerak.

Maktabdan va sinfdan tashkari o'tkaziladigan barcha tadbirlarni muntazam kurib baxolaydi.

Direktor urinbosarining ish rejasi maktab direktori tomonidan tasdiklanadi. .^.

Ishni rejalashtirishda bolalarning yosh xususiyatlariga, maktab joylashgan viloyat, shahar, tumanning shart-sharoiti, an'analari, xususiyatlarini joylardagi ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan uzaro alokasi kabi ishlarni inobatga oladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar buyicha direktor urinbosari kayta taiyorlov kurslarida uz malakasini oshirib boradi.

Direktor urinbosarining faoliyati uz ifodasini topgan xujjatlar ruyxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimo I. A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T.: 2008 yil
2. Karimov I.A. «O’zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O’zbekiston 1992-62 b.
3. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisii buzmang» – Toshkent: O’zbekiston 1993. – 24 b.
4. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. – Toshkent: O’zbekiston, 2000.
5. «O’zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)